INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS
Volume 1,issue 1,2023

BUXORODA VILOYATI HUDUDIDA JOYLASHGAN BA'ZI MADRASALAR TARIXI

Abdullayev Zohidjon
Namangan davlat universiteti
Tarix yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Maqolada bugungi kunga kelib saqlanib qolgan Buxoroni tarixini asoslovchi, qolaversa butun O'zbekistonni ko'rki bo'lgan Buxorodagi ilm maskanlari yani madrasalar haqida so'z boradi. Maqolada hozirda Buxorodagi asosiy kata madrasalar tarixii haqida qisqacha ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Madrasa, Qubbatul-Islom, Samarqand darvoza, hukumronlik, guzar, mudarris, mutavalli.

Hammaga ma'lumki O'rta Osiyo, xususan Buxoro, Xorazm, Samarqand, Qo'qon o'zining ilm-u ma'rifati bilan butun musulmon olamiga balki G'arb mamlakatlari rivojlanish tamadduniga ham katta hissa qo'shgan. Ayniqsa, Buxoro "Qubbatul Islom" nomini olgan. Bunga sabab azal-azaldan madrasalar ilm-marifat o'chog'i bo'lib xizmat qilgani va o'zining ko'plab madrasalari bilan nom taratganidir. Buxoro turli yerlardan ilm tahsili uchun talabalar tashrif buyuradigan shahar hisoblangan. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Buxorodagi birinchi madrasa IX asrda barpo etilgan. Eng qadimgi madrasalardan, "Farjak madrasasi" hisoblanadi. Farjak madrasasi nafaqat Buxoro, balki butun boshli mintaqamizda bunyod etilgan dastlabki madrasalardan biridir. U to'g'risidagi ma'lumotlar Muhammad Narshaxiyga tegishli bo'lib, bu madrasa taxminan IX asrda Buxoro shahrining "Samarqand darvoza" deb ataladigan qadimiy manzili hududida, yo'l yoqasida qurilgan. Milodiy 937-yilda yonib vayron bo'lgan. Keyinchalik u ta'mirdan chiqarilgan. XIII asrda unda mudarris Mas'ud Imomzoda dars o'tgan. Afsuski, binosi saqlanib qolmagan.

Buxorodagi yana bir eng qadimiy oliy madrasa deya hisoblangan ta'lim dargohi Abu Hafs Kabir Buxoriy madrasasidir. Bu madrasaga 800-810-yillar atrofida asos solingan. Ilmiy faoliyatiga hozir qarib 1200 yil to'ldi. Madrasa bilan bog'liq ayrim tarixiy yodgorliklar saqlanib qolgan. Ayrimlari ta'mirlangan. Sho'rolar inqilobiga qadar bu madrasada uzluksiz dars o'tilgan.

O'rta asrlarda Buxoro madrasalari ilm maskani sifatida balki Sharqda ham mashhur edi. Amir Temur va temuriylar davrida madrasalar oliy ma'lumot beruvchi markaz vazifasini o'tagan. Muhammad Ali Baljuvoniyning ma'lumotiga ko'ra, XX asrning boshlariga kelib, Buxoroda madrasalar soni 400 ga yaqin bo'lgan. Madrasalar asosan xon, amaldor, badavlat kishilar va ziyoli shaxslarning tashabbusi bilan barpo etilib, madrsalar nomi o'sha shaxslar ismi, ba'zan madrasa joylashgan mahalla, guzar nomi bilan atalgan. Bunday madrsalarga yana bir namuna buyuk bobokalonimiz Mirzo Ulug'bek yaqqol misol bo'la oladi.

Mirzo Ulug'bek nafaqat Samarqandda, balki Buxoro va G'ijduvonda ham madrasa bunyod etib, ularni muntazam qo'llab-quvvatlab turgan. Uning davrida madrasalarda ilohiyot fanlari bilan bir qatorda aniq, tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar ham o'qitilgan. Ulug'bek madrasasi 1417-yilda qurilgan bo'lib, bu madrsaning eng etiborga sazovor joyi bu madrasaning loyihasini Mirzo Ulug'bekning o'zi chizganligidadir. Madrasa qurilishini o'sha davrning eng mashhur ustalari Najmiddin Buxoriy va Ismoil ibn Mahmud Isfaxoniylar boshchilik qilgan.

Yuqorida tilga olingan madrasalaridan tashqari Kalabod, G'aribiya, Abu Bakr ibn Fazl, Kulartegin, Xoniya, Oxund Xovand, Xoja Ilg'or, Mas'udiya, Xoja Muhammad Porso madrasalari faoliyat ko'rsatgan, bu madrasalarning barchasi sho'rolar davriga qadar butun dunyo

ilm beshigini tebratib turgan. Ayrimlari hozir ham saqlanib qolgan.Bulardan ko‘rinib turibdiki Buxoroi sharifga bejizga ilmu ma’rifat maskani deya ta’rif berilmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asrorova L. Q.. *Buxoro madrasalari tarixidan*. Toshkent: Hilol-Nashr, 2017 — 224 bet. ISBN 978-9943-4818-6-2.
2. Bobojonova F.. *Buxoro amirligida ta’lim tizimi (XIX asr oxiri — XX asrning boshlarida)*. Toshkent: Adib, 2014 — 128 bet.
3. Jumanazar A.. *Buxoro ta’lim tizimi tarixi*. Toshkent: Akademnashr, 2017 — 592 bet. ISBN 978-9943-4728-2-2.
4. Khakimov, S. R., & Sharopov, B. K. (2023). Educational Quality Improvement Events Based on Exhibition Materials in Practical Training Lessons. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education*, *1*(2), 5-10.